ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Ma’rifat Xusanova

FarDU katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ahmadjonova Farzona

FarDU talabasi

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING GRAMMATIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH (SO‘Z TURKUMLARI MISOLIDA)

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida eshitishida nuqsoni bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili fanidan so‘z turkumlarini o‘rgatishning samarali metod va usullari yoritilgan. Tadqiqotda vizual, amaliy-harakatli, yozma va differensial yondashuv asosida tashkil etilgan darslarning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, sog‘lom va eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun birgalikda tashkil etiladigan dars jarayonida qo‘llaniladigan inklyuziv metodlar tavsiflanadi.

Annotation. This article discusses effective methods and techniques for teaching parts of speech in the mother tongue to primary school students with hearing impairments in an inclusive education setting. The study analyzes the pedagogical effectiveness of lessons organized on the basis of visual, practical-action, written, and differentiated approaches. In addition, inclusive methods used in jointly organized lessons for typically developing students and students with hearing impairments are described.

Аннотация. В данной статье рассматриваются эффективные методы и приемы обучения частям речи по предмету родной язык учащихся начальных классов с нарушениями слуха в условиях инклюзивного образования. В исследовании анализируется педагогическая эффективность уроков, организованных на основе визуального, практико-деятельностного, письменного и дифференцированного подходов. Также описываются инклюзивные методы, применяемые в совместно организованном учебном процессе для нормально развивающихся учащихся и учащихся с нарушениями слуха.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, eshitishda nuqson, so‘z turkumlari, ona tili, vizual metod, differensial yondashuv.

Keywords: inclusive education, hearing impairment, parts of speech, mother tongue, visual method, differentiated approach.

Ключевые слова: инклюзивное образование, нарушение слуха, части речи, родной язык, визуальный метод, дифференцированный подход.

KIRISH

Feruz Ablayarov-O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori o‘rinbosari o‘z nutqida aytganidek, O‘zbekistonda inklyuziv ta‘lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ayni sohada bir qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida talim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga

ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori bu borada amalga oshirilishi mo‘ljallangan sa’y-harakatlar uchun huquqiy asos bo‘ldi.[1] Bugungi kunda ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvning joriy etilishi alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning umumta’lim muhitida sifatli bilim olishini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, eshitishida nuqsoni bor o‘quvchilarni inklyuziv sinflarda o‘qitishda ona tili fanini o‘zlashtirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ona tili darslarida so‘z turkumlari mavzusi o‘quvchilarning grammatik tafakkuri va nutq rivojida asosiy o‘rin tutadi. Xususan, eshitishida nuqsoni bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining inklyuziv sinflarda ta’lim olishi ona tili fanini o‘zlashtirishda maxsus metodik yondashuvlarni talab etadi. Chunki mazkur toifadagi o‘quvchilar uchun og‘zaki nutqqa tayangan an’anaviy dars usullari yetarli samara bermaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shu nuqtai nazardan, ona tili fanining muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan so‘z turkumlari mavzusini o‘rgatishda vizual, yozma va amaliy faoliyatga asoslangan metodlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Aynan ushbu ehtiyoj inklyuziv sinf sharoitida darsni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashni talab qiladi. Shu bois mazkur maqolada eshitishida nuqsoni bor o‘quvchilar ishtirokidagi inklyuziv sinflarda so‘z turkumlarini o‘rgatish metodikasini tushuntirishga harakat qildik. Inklyuziv sinfda so‘z turkumlarini o‘rgatishda dars jarayoni ko‘rgazmalilik, yozma tayanch va differensial yondashuv asosida olib boriladi. Mazkur yondashuvlar orqali o‘quvchilarning mavzuni tushunishi va amalda qo‘llay olishi ta’minlanadi. Ayniqsa, ot, fe’l va sifat kabi asosiy so‘z turkumlarini o‘rgatishda rasmlar, jadvallar, kartochkalar hamda o‘yin elementlaridan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

Inklyuziv sinf sharoitida darsni tashkil etish xususiyatlari. Inklyuziv sinfda so‘z turkumlarini o‘rgatishda ko‘rgazmalilik va vizuallik, differensial va individual yondashuv, yozma nutqqa tayangan holda tushuntirish kabi tamoyillarga asoslanish natijaviylikni oshiradi.

So‘z turkumlarini o‘rgatishda qo‘llaniladigan turli metodlarni tavsiya qilishimiz mumkin. Bunday metodlar bir nechta turga bo’linishi barchamizga ma’lum. Masalan, vizual, yozma tayanch metodi, amaliy-harakatli ya’ni, o‘yin ko‘rinishidagi metodlar va differensial yondashuv.

Vizual metod o‘quvchining ko‘rish analizatorlari bilan bog‘liq xotirani rivojlantiradi. Bu metod so‘z turkumlari rasmlar, piktogrammalar, jadvallar va rangli kartochkalar orqali tushuntiriladi. Masalan, otlar — predmet rasmlari, fe’llar — harakatni ifodalovchi tasvirlar, sifatlar esa rang va belgi bilan bog‘langan rasmlar yordamida o‘rgatiladi. Bu metod eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilarning idrokini faollashtiradi.

Yozma tayanch metodi esa mavzuni aniq, sodda va ravon eslab qolishi uchun juda qulay hisoblanadi. O‘qituvchi har bir yangi tushunchani doskaga aniq va qisqa qilib yozadi. Qoidalar soddalashtirilgan shaklda beriladi:

Ot — kim? nima?

Fe’l — nima qildi?

Sifat — qanday?

[1] https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7337-o-zbekistonda-inklyuziv-ta-lim-joriy-o-zgarishlar-va-taraqqiyot-yo-nalishlari.html

Bu metod orqali eshitishida nuqsoni bor o‘quvchilar axborotni osonroq qabul qiladi va xotirada saqlash uchun ham qulay

Amaliy-harakatli metodlar bolalarni darsga o‘yin bilan hamohang tarzda kirishishlarini ta’minlaydi. Bu metodlar bilan ishlash ham o‘ziga xos pedagogil mahorat talab etadi. Amaliy metodlarda so‘z turkumlari o‘yin, rolli mashqlar va harakatlar orqali mustahkamlanadi. Masalan, o‘qituvchi harakatni ko‘rsatadi, o‘quvchilar esa uni fe’l orqali yozma ifodalaydi. Bu metod sog‘lom o‘quvchilar uchun ham qiziqarli bo‘lib, sinfda faol ishtirokni ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’limda differensial yondashuv alohida ahamiyatga ega jihat sifatida tavsiflanadi. Chunki alohida yordamga muhtoj bolalar bilan individual, iqtidoriga xos tarzda ishlash lozim. Ularga o‘z imkoniyatlari doirasida barcha sharoitlarni qilib berish bizning vazifamiz. Differensial ta’limda inklyuziv sinfda topshiriqlar murakkabligi darajasiga ko‘ra farqlanadi. Eshitishida nuqsoni bor o‘quvchilarga qisqa gaplar va rasm asosidagi mashqlar berilsa, sog‘lom o‘quvchilarga kengaytirilgan matnlar bilan ishlash topshiriladi. Topshiriqlar bolalar salohiyatiga qarab murakkablashib borishini ta’minlash o’rinli.

NATIJA VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan pedagogik kuzatishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv sinf sharoitida so‘z turkumlarini vizual va yozma tayanchlar asosida o‘rgatish eshitishida nuqsoni bor o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, mazkur metodlar sog‘lom o‘quvchilarning ham darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Natijada, inklyuziv ta’lim jarayonida tashkil etilgan bunday darslar o‘quvchilarning grammatik kompetensiyalarini shakllantirish bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy moslashuv darajasini ham yuksaltiradi. Birgalikdagi faoliyat esa o‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy moslashuv va o‘zaro hurmatni shakllantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv sinf sharoitida eshitishida nuqsoni bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘z turkumlarini o‘rgatish maxsus pedagogik yondashuvni talab etadi. Vizual, yozma va differensial metodlardan tizimli foydalanish ona tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar inklyuziv ta’limning asosiy maqsadlari — ta’limda tenglik, moslashuv va integratsiyani ta’minlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Amonov X., Rahimova D. Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2020.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Boshlang‘ich sinf ona tili darsligi. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
4. Hallahan D., Kauffman J. Exceptional Learners: Introduction to Special Education. – Pearson Education, 2018.
5. Inkluziv ta’lim bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent: Xalq ta’limi vazirligi, 2021.
6. Maxsus pedagogika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Surdopedagogika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2019.
8. UNESCO. Guide for Inclusive Education. – Paris, 2017.
9. https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7337-o-zbekistonda-inklyuziv-ta-lim-joriy-o-zgarishlar-va-taraqqiyot-yo-nalishlari.html